

O'zbekiston va Eron Prezidentlari ikki tomonlama hamkorlik masalalarini ko'rib chiqdilar



Samarqanddagi Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiyning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Eron Prezidentining ushbu tashrifini tarixiy deya baholadi hamda mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi bilan qutladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston – Eron munosabatlari yangi sur'at bilan rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

Muzokarlarda Prezidentlar ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalarda amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qildilar.

Savdo va transport sohalaridagi sheriklikka, ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratdilar.

Tomonlar keyingi yillarda o'zaro muloqot va almashinuvlar faollashganini qayd etdilar. Savdo ko'rsatkichlari va kooperatsiya loyihalari soni oshib bormoqda. O'tgan yilda tovar ayirboshlash 73 foizga, joriy yil boshidan esa yana 15 foizga oshdi.

Joriy yilda Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi, biznes va fan-innovatsiya forumlari o'tkazildi, Qo'shma investitsiya qo'mitasi ta'sis etildi.

Ikki tomonlama savdoni yanada ko'paytirish, yaqin istiqbolda tovar ayirboshlashni 1 milliard dollarga yetkazish uchun keng imkoniyatlar borligi qayd etildi.

Shu maqsadda tegishli “yo‘l xarita”si ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, imtiyozli savdo to‘g‘risida bitim imzolash ko‘zda tutilgan.

Qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, neft-gaz, qurilish materiallari va metall mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlarida, fan va innovatsiyalar sohasida boshlangan va ishlab chiqilayotgan kooperatsiya loyihalari qayd etildi. Qo‘shma sanoat klasterlarini yaratish orqali ishlab chiqarishni mahalliyashtirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Transport-logistika sohasidagi hamkorlikka alohida e‘tibor qaratildi. “O‘zbekiston - Turkmaniston - Eron” yo‘li orqali avtotransportda yuk tashishni yo‘lga qo‘yish, “Chobahor” porti salohiyatidan samarali foydalanish, yuklar olib kirilishi va tranziti sharoitlarini yengillashtirish bu boradagi imkoniyatlarning kengayishiga xizmat qilishi aytib o‘tildi.

Ikki mamlakat hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy, turizm va madaniy aloqalarni faollashtirish muhimligi qayd etildi.

Afg‘oniston mavzusi yuzasidan ham fikr almashildi.

Ibrohim Raisiy O‘zbekiston Prezidentini o‘zi uchun qulay vaqtda javob tashrifi bilan Eronga borishga taklif etdi.

Manba